



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 115 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari

**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi

**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSİYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJAJATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL .....	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI .....	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI .....	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF .....	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI .....	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH .....	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
<b>Davronova G.O., Tursunova G.R.</b>	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES .....	96
<b>Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich</b>	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
<b>Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
<b>Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	



# SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI



**Mamanazarov Javohir Kamolovich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,  
2-bosqich talabasi



Ilmiy rahbar:

**Xurramov Ramazon Allayor o'g'li**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

E-mail: ramazon\_xurramov@tues.uz

ORCID: 0009-0001-0170-3053

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada Surxondaryo viloyatida eksportni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'rni va ahamiyati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida viloyat eksportining tarkibi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy eksport hajmidagi ulushi hamda asosiy eksport yo'nalishlari o'rganildi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlari yoritib berildi. Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida agrar eksportni kengaytirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** eksport, qishloq xo'jaligi, Surxondaryo viloyati, meva-sabzavot mahsulotlari, tashqi savdo, agrar sektor.

**Abstract:** This scientific article analyzes the role and significance of agricultural products in the development of exports in the Surkhondaryo region based on statistical data. The study examines the structure of the region's exports, the share of agricultural products in total export volume, and the main export destinations. In addition, the opportunities for achieving regional economic growth through the development of agricultural exports are explored. The findings indicate that expanding agricultural exports in the Surkhondaryo region is an important factor in ensuring regional economic sustainability.

**Key words:** export, agriculture, Surkhondaryo region, fruit and vegetable products, foreign trade, agricultural sector.

**Аннотация:** В данной научной статье на основе статистических данных проанализированы роль и значение сельскохозяйственной продукции в развитии экспорта Сурхандарьинской области. В ходе исследования были изучены структура экспорта региона, доля сельскохозяйственной продукции в общем объёме экспорта, а также основные экспортные направления. Кроме того, рассмотрены возможности достижения регионального экономического роста за счёт развития экспорта сельскохозяйственной продукции. Результаты исследования показывают, что расширение аграрного экспорта в Сурхандарьинской области является важным фактором обеспечения экономической устойчивости региона.

**Ключевые слова:** экспорт, сельское хозяйство, Сурхандарьинская область, плодоовощная продукция, внешняя торговля, аграрный сектор.



## KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida tashqi savdoning, xususan, eksportning rivojlanishi mamlakat va hududlar iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'i eksport salohiyatiga ega yetakchi sohalardan biri bo'lib, uning iqtisodiyotdagi hissasi yildan yilga barqaror oshib bormoqda. Ayniqsa, qulay iqlim sharoiti hamda unumdor yer resurslariga ega bo'lgan Surxandaryo viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni tashqi bozorlarga yetkazib berishda muhim strategik hududlardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Surxandaryo viloyatida eksportni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ahamiyatini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni'da 2020-2030-yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirish hamda hududlarning ixtisoslashuvini kuchaytirish belgilab berilgan [1]. Mazkur strategiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va ularni tashqi bozorlarga yo'naltirish orqali eksport hajmini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Ayniqsa, agrar salohiyati yuqori bo'lgan Surxandaryo viloyatida meva-sabzavotchilik, polizchilik va chorvachilik mahsulotlarini eksportga yo'naltirish hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, aholi bandligini oshirish hamda eksport daromadlarini ko'paytirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son Qarori<sup>2</sup>da qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksport qiluvchi xo'jaliklar va klasterlarga moliyaviy rag'batlar berish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan [2]. Ushbu qaror qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lib, Surxandaryo viloyati kabi chegaradosh va eksport geografiyasi qulay hududlarda agrar eksportni kengaytirish uchun qulay institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi.

Shu bois, Surxandaryo viloyatida eksportni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish davlat dasturlarida belgilangan vazifalarning amaliy ijrosini baholash hamda hududiy rivojlanish istiqbollari aniqlash nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy, jumladan, AQSH va Yevropa Ittifoqi olimlarining tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy drayverlardan biri sifatida baholanadi. Jahon banki hamda FAO ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda agrar mahsulotlar eksportining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligi, logistika infratuzilmasining rivojlanganligi va xalqaro standartlarga muvofiqlik bilan bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, FAO hisobotlarida rivojlanayotgan hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti tashqi savdo barqarorligini ta'minlash va bandlik darajasini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi [8].

J. Anderson (AQSH) tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining bozorga kirish mexanizmlari, shuningdek, tarif to'siqlarini kamaytirish orqali hududiy eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan [3].

MDH mamlakatlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston olimlarining ilmiy ishlarida agrar eksport masalalari asosan davlat tomonidan tartibga solish, transport-logistika tizimi hamda eksport infratuzilmasini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. V. I. Glazyev Rossiya iqtisodiy maktabi doirasida olib borgan tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini sanoat va hududiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi [4]. Qozog'istonlik olim A. K. Sagintayev esa agrar eksportni rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuv va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish klasterlarining ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritib beradi [5].

O'zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. U. S. Habibjonov tadqiqotlarida O'zbekiston qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirishda mahsulotlarni qayta ishlash ulushini ko'paytirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurligi asoslab berilgan [6]. B. Faxriddinov ilmiy ishlarida esa agrar eksport barqarorligini ta'minlashda logistika infratuzilmasi va investitsiya muhitining o'zni alohida ta'kidlanadi [7]. Ushbu ilmiy yondashuvlar Surxandaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishning hududiy mexanizmlarini chuqur va tizimli tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6099-son <https://lex.uz/ru/docs/-5077667?ON-DATE=13.06.2023>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>




## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Surxandaryo viloyatida eksportni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'rnini va ahamiyatini aniqlash maqsadida iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Surxandaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida Surxandaryo viloyatining eksport tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hududning eksport salohiyatini yanada chuqurroq o'rganish uchun viloyatda eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi asosiy tarmoqlarni alohida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarmoqlar orasida yuqori darajada ixtisoslashgan va keng iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi viloyat eksport salohiyatini oshirishda yetakchi va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bois, tadqiqot doirasida Xalqaro standart savdo tasnifi (XSST) bo'yicha viloyat eksport tarkibidagi "oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar" guruhi alohida ajratilib, uning asosiy ko'rsatkichlari statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv Surxandaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining hajmi, tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda hududiy eksportni kengaytirish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Surxandaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksportining viloyat jami eksportidagi ulushi dinamikasi [9]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-yilda Surxandaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksportining jami eksportdagi ulushi 21 foizni tashkil etgan. 2011-yilda ushbu ko'rsatkich 33 foizgacha oshgan bo'lsa, 2012-yilda 23 foizgacha pasaygan. 2013-yilda ulush 35 foizga yetgan, 2014-yilda esa 15 foiz bilan tahlil qilinayotgan davr mobaynidagi eng past daraja qayd etilgan.

2015-yilda mazkur ko'rsatkich 36 foizni tashkil etib, o'sish tendensiyasi shakllana boshlagan. 2016-yilda ulush 54 foizga, 2017-yilda 74 foizga, 2018-yilda esa 77 foizga yetib, eng yuqori natija qayd etilgan. Keyingi yillarda, ya'ni 2019-yilda ko'rsatkich 62 foizni, 2020-yilda 51 foizni, 2021-yilda esa 45 foizni tashkil etgan. 2022-yilda ulush 55 foizgacha oshgan bo'lsa, 2023-yilda 51 foiz darajasida shakllangan. 2024-yilda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksportining viloyat jami eksportidagi ulushi 65 foizga yetgan. 2025-yil yanvar holatiga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, 2010–2024-yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksportining ulushi 15–77 foiz oralig'ida o'zgarib, Surxandaryo viloyati eksportida agrar mahsulotlarning yuqori ulushi barqaror saqlanib kelayotganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan statistik tahlillar natijasida Surxandaryo viloyatida eksportni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari muhim o'rin egallashi aniqlangan. Jumladan, 2021–2025-yillar davomida viloyatning umumiy




eksport hajmi 38,5 mln AQSh dollaridan 68,3 mln AQSh dollarigacha oshib, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur davrda eksport hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 15 foizni tashkil etgan.

Statistik natijalar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari viloyat eksportining asosiy qismini tashkil etadi. Xususan, 2025-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 41,3 mln AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksport hajmining 60,5 foizini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich agrar sektorning viloyat tashqi savdosidagi yetakchi ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, yillik o'sish sur'atlari tahlili natijasida 2024–2025-yillarda eksport hajmi 22,8 foizga oshgani aniqlangan. Mazkur o'sishda meva-sabzavot mahsulotlari eksportining ko'payishi muhim rol o'ynagan. Bu holat tashqi bozorlarda Surxandaryo viloyatida yetishtirilayotgan agrar mahsulotlarga bo'lgan talabning izchil ortib borayotganidan dalolat beradi.

Olingan natijalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining hududiy iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Eksport hajmining oshishi valyuta tushumlarining ko'payishiga, qishloq joylarda bandlik darajasining yaxshilanishiga hamda agrar sektorning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Keyingi bosqichda qishloq xo'jaligi tarkibida muhim o'rin tutuvchi dehqonchilik va chorvachilik sohalari alohida ajratilib, ularni kompleks statistik tahlil qilish orqali yanada chuqur ilmiy xulosalar chiqarish rejalashtiriladi (2-rasm).



2-rasm. Surxandaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarkibining so'nggi yillardagi o'zgarishi dinamikasi [9]

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010–2025-yillar davomida qishloq xo'jaligi tarkibida dehqonchilik va chorvachilik ulushlari muayyan statistik qonuniyat asosida o'zgarib borgan. Jumladan, 2010-yilda dehqonchilik ulushi 57 foizni, chorvachilik ulushi esa 43 foizni tashkil etgan. Dehqonchilikning eng yuqori ko'rsatkichi 2011-yilda 63 foizga yetib, 2010-yilga nisbatan 6 foiz punkt mutlaq o'sish qayd etilgan. Mazkur davrda chorvachilik ulushi eng past darajaga tushib, 37 foizni tashkil etgan.

2012–2016-yillar davomida dehqonchilik ulushi 54–60 foiz oralig'ida tebrangan bo'lib, maksimal va minimal qiymatlar orasidagi amplituda 6 foiz punktni tashkil etgan. Ushbu holat qishloq xo'jaligi tarkibida nisbatan barqaror tendensiyaning shakllanganligini ko'rsatadi. 2016-yilga kelib dehqonchilik ulushi 54 foizgacha kamayib, 2011-yilga nisbatan 9 foiz punkt mutlaq pasayish kuzatilgan bo'lsa, chorvachilik ulushi mos ravishda 46 foizgacha oshgan.



2020-yildan boshlab qishloq xo'jaligi tarkibida muvozanat bosqichi shakllangan. Xususan, 2020-yilda dehqonchilik va chorvachilik ulushlari tenglashib, har biri 50 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan dehqonchilik ulushining 7 foiz punktga qisqarishini, chorvachilik ulushining esa 7 foiz punktga oshganini ko'rsatadi. 2021–2024-yillar davomida dehqonchilik ulushi 51–52 foiz, chorvachilik ulushi esa 48–49 foiz oralig'ida saqlanib qolgan bo'lib, yillik o'zgarish sur'ati  $\pm 1$  foiz punktdan oshmagan. Bu holat tarkibiy past volatillik va nisbiy barqarorlik mavjudligini anglatadi. 2025-yil yanvar–sentabr holatiga ko'ra esa dehqonchilik va chorvachilik ulushlarining yana 50/50 nisbatda shakllangani kuzatilgan.

Umuman olganda, 2010–2025-yillar oralig'ida dehqonchilik ulushi 7 foiz punktga qisqargan, chorvachilik ulushi esa 7 foiz punktga oshgan. Mazkur holat qishloq xo'jaligi tarkibida chorvachilikning nisbatan tezroq rivojlanishi hisobiga yuzaga kelgan aniq va statistik jihatdan asoslangan tarkibiy siljishni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari Surxandaryo viloyatida eksportni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari muhim va barqaror omil ekanligini tasdiqlaydi. Olingan statistik ma'lumotlar viloyat eksport tarkibida agrar mahsulotlarning yuqori ulushga egaligini ko'rsatib, hududiy iqtisodiyotning agrar yo'nalishga ixtisoslashganligini ifodalaydi. Ushbu natijalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining hududiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri haqidagi nazariy qarashlar bilan to'liq mos keladi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari eksport tuzilmasini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, eksport hajmining o'sishi asosan meva-sabzavot mahsulotlarining xomashyo ko'rinishida yetkazib berilishi hisobiga ta'minlanmoqda. Bu esa qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish orqali eksportdan olinadigan qo'shimcha qiymatni ko'paytirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Mazkur holat qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, ayrim yillarda eksport hajmining o'sish sur'atlari tashqi bozor kon'yunkturasi, logistika imkoniyatlari va mavsumiy omillar bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa agrar eksportni yanada barqaror rivojlantirish uchun tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish hamda logistika infratuzilmasini izchil takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Surxandaryo viloyatining qulay geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari agrar mahsulotlar yetishtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, eksportni qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi hisob-kitoblar natijalari Surxandaryo viloyatida eksport hajmining barqaror o'sishida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetakchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yuqori ulushi va ijobiy o'sish sur'atlari agrar sektorning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxandaryo viloyatida agrar eksportni yanada rivojlantirish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, logistika va infratuzilmani izchil takomillashtirish hamda tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FAO (2022) tahlillariga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirishda mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, saqlash va logistika tizimini rivojlantirish hamda qo'shimcha qiymat yaratish muhim omillar hisoblanadi. World Bank (2023) tadqiqotlarida esa Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hududlarida agrar eksportning raqobatbardoshligini oshirish hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirish, eksport infratuzilmasini rivojlantirish hamda chegaraoldi savdo imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ta'minlanishi qayd etilgan.

Ushbu xulosalar Surxandaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishda ishlab chiqarish–logistika–bozor zanjirini kompleks va tizimli takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida"gi PF–6099-son Farmoni. — Toshkent, 2020. — 39 b. <https://lex.uz/ru/docs/-5077667?ONDATE=13.06.2023>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–60-son Qarori. — Toshkent, 2022. — 18 b. <https://lex.uz/uz/docs/-7386867>
3. Anderson, J. Agricultural Trade and Market Access. — Washington, DC: World Bank, 2018. — 142 p. — P. 114–118. Internet manzil: <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/30034>



4. Глазьев, В. И. Экспорт аграрной продукции и региональное развитие экономики. — Москва: Экономика, 2017. — 128 с. — С. 41–45.
5. Сагинтаев, А. К. Развитие аграрного экспорта в странах ЕАЭС. — Алматы: Экономика, 2020. — 110 с. — С. 88–92.
6. Habibjonov, U. S. The Role of Agriculture in the Development of the Export Potential of the Republic of Uzbekistan // Лучшие интеллектуальные исследования. — 2024. — Vol. 28, № 1. — P. 62–69. Internet manzil: <https://web-journal.ru/journal/article/view/7335/7129>
7. Faxriddinov, B. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining iqtisodiy barqarorligi // Green Economy and Development. — 2024. — P. 5–18. Internet manzil: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7818>
8. FAO. Agricultural Export Development and Food Security. — Rome: FAO, 2019. — 56 p. — P. 23–27. Internet manzil: <https://www.fao.org/3/ca5449en/ca5449en.pdf>
9. Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti ma'lumotlari. Internet manzil: <https://www.surxonstat.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>